

AL-ANDALUSLIK IBN RUSHDNING G'ARB FALSAFASI RIVOJIGA QO'SHGAN XISSASI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitet Tarix fakulteti 2-kurs
talabasi*

S.A.Norboboyev

Ilmiy raxbar: t.f.n.,dots

Q.A.Matxoliqov

Abstract: Mazkur maqola o'rta asr Musulmonlar Ispaniyasida yashab o'tgan atoqli olimlardan biri bo'lgan Ibn Rushdning hayoti va ilmiy merosi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, uning G'arb falsafasiga qanday xissa qo'shgani va rivojiga turtki bo'lgani to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Averroes, falsafa, Aristotelizm, Ibn Tufayl, Kordova, Toledo, Abu Yoqub Yusuf, Akvinskiy.

O'rta asrlarda musulmonlar boshqargan Ispaniya o'z davrida "Al-Andalus" nomi bilan mashhur bo'lgan va jahon ilm-fani rivojiga xissa qo'shgan allomalarni yetishtirgan. Bularga Ibn Boja, Ibn Hazm, Ibn Tufayl, Al-zahroviy va Ibn Zuhr kabi yana ko'plab mutafakkirlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Lekin bular qatorida yana bir buyuk ishlarni amalga oshirgan olim borki, uni G'arbda "Averroes" sifatida tanishadi. Bu alloma Aristotelning asarlarini tarjima qilib sharhlar yozgan va G'arb falsafasida yangi maktab shakllanishiga sababchi bo'lgan Ibn Rushddir.

Ibn Rushd (1126-1198) lotinchada "Averroes", falsafa ilmi bilan birga yana boshqa ko'plab fan sohalari bo'yicha 100 dan ortiq asarlar va risolalar yozib qoldirgan. Uning falsafa fanidagi asarlari asosan Aristotelga sharhlardan iborat bo'lganligi bois G'arbda "Kommentator", "Ratsionalizm otasi" sifatida tanilgan. Ilk bor XIII asrda arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan Ibn Rushdning asarlari Aristotel falsafasining asl ma'nosini tushunish uchun qimmatli yordam sifatida qadrlangan. Uning asarlari G'arb Rim Imperiyasi qulagandan keyin yo'lgan qadimgi yunon faylasuflariga bo'lgan ilmiy qiziqishni qayta jonlantirib yuborgan. Uning fikrlarining harakterli jihati shunday bo'lganki, u falsafani ko'plab sohalarda aniqlikka erisha oladi, shuningdek, falsafa dinga muqobil bo'lish o'rniga diniy izlanishlarda markaziy o'rin egallashi kerak deb hisoblagan. Uning eng mashhur asarlariga "Fasl al-maqol", "Kashf al-Manohij", "Tahofut al-Tahofut", "Kitabu'l Kulliyat fi al-Tibb" kabilarni keltirish mumkin.

Ibn Rushd 1153-yilda Almohadlarning poytaxti bo'lmish Marrakesh shahriga sayohat qilib faylasuf Ibn Tufayl bilan uchrashib u bilan do'st tutunadi. So'ngra Ibn Tufayl uni Almohad xalifasi Abu Yoqub Yusuf bilan tanishtiradi. Xalifa esa undan juda muhim vazifani o'z bo'yniga olishini so'raydi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning asarlarini qayta tarjima qilish va sharhlar berishni



iltimos qiladi. U esa o'zining ilmiy faoliyatining asosini shu ishga bag'ishlaydi va bu sharhlar arab tilidan ibroniy tiliga, keyin esa lotin tiliga tarjima qilinib, musulmon olamidan yahudiy va xristian dunyosiga tarqaladi.

Dastlab, Ibn Rushdga xalifa Abu Yoqub Yusuf tomonidan homiylik qilingan. Ammo, 1184-yilda xalifa vafot etgach uning o'rniga kelgan Yoqub al-Mansur hukmronligi davrida uning aql-zakovatiga hasad qilgan berber diniy mutaassiblari tomonidan turli tuhmatlar qilingach saroy e'tiboridan chetda qoladi. Unga turli-tuman ayblovlar qo'yildi va Kordovada sud qilindi. Sud Averroesning asarlarini yoqib yuborishga buyurdi va uning butun boshli kutubxonasi 1194-1195-yillarda kulga aylandi. Shuningdek, u Lusena atrofidagi yahudiy qishlog'iga surgun qilindi. Shunga qaramasdan, 1098-yilda diniy fanatizm susayishi bilan xalifa Ibn Rushdni saroyga chaqirib oladi. U yana qaytadan saroydan joy oladi, lekin, faylasuf shu yilning o'zida vafot etadi.

Ibn Rushdning asarlari ayniqsa Aristotel asarlariga sharhlari dastlab Ispaniyadagi arab falsafasiga juda qiziquvchi yahudiy olimlari tomonidan tarjima qilingan. Yahudiy Averroist an'anasi XIV asrda o'z cho'qqisiga erishdi va Pireney yarimoroli orqali Fransiya tarqaladi. Yahudiy tarjimalari lotin tiliga tarjimalar uchun yo'l ochib berdi. Uning asarlarini ilk bor lotin tiliga tarjima qilgan kishi Maykl Skot hisoblanadi va u o'z vazifasini 1217-yilda Toledoda bir qancha asarlarni tarjima qilishdan boshlaydi. Bu tarjimalar Yevropa tafakkuriga uzoq vaqt ta'sir etdi va Rim imperiyasi davridan beri deyarli unutilib ketgan yunon falsafasining qayta kashf etilishi bo'ldi.

Ilk davrlarda Musulmonlar Ispaniyasining islom qoidalari shunchalik qat'iy o'rnatilgan ediki, shu sababli falsafa diniy bo'lmagan fan hisoblangan. Bu fan ayniqsa an'analarga sodiq sunniylikning hanbaliy va ash'ariy maktablari tomonidan tanqidga uchragan.

Keyinchalik averroistlar tomonidan davom ettirilgan bu Averroes falsafasi "Averroizm" (uning nomi bilan ataluvchi falsafiy oqim) Rim Katolik cherkovi tomonidan tanqid va qoralashlarga uchrasada, G'arbda dominant maktab bo'lib qoldi. Bu maktab Yevropa Renessans tufayli Aristotelizmdan gumanizmga o'tgan XVI asr oxirigacha o'z ergashuvchilariga ega bo'ldi. U amalga oshirgan buyuk ishlardan yana biri bu Aristotel asarlarini o'qib-o'rgangan holda "sekulkyarizm" g'oyasiga, ya'ni, dindan mustaqil bo'lgan falsafiy tafakkurga asos solgani bo'ldi. "Sekulyarizm" atamasi Britaniyalik agnost mutafakkir Jorj Holyoak tomonidan fanga kiritilishidan oldin bu g'oya "Averroist maktabi" yoki "Averroism" nomi bilan mashhur edi. Aynan shu oqim keyinchalik "Ma'rifat" davrining asosiy poydevor toshlaridan birni qo'ydi.

Uning qimmatli yozuvlari G'arbda olimlarning katta doirasini o'ziga jalb etdi. XIII asrda yashagan va o'z falsafiy qarashlarini "Averroism" nomi ostida targ'ib qilgan Siger de Brabant va Boetsiy de Datsiyalar bunga misol bo'la oladi. Garchi uning falsafiy g'oyalari xristianlik ta'limotiga zid deb sababli



bahsli deb topilsada, shunga qaramay ko‘plab G‘arb mutafakkirlari Ibn Rushdning asarlaridan keng foydalangan. Foma Akvinskiy, hamda boshqa o‘rta asr xristian faylasuflari Albert Buyuk va Jon Don Skotuslar bir qator masalalarda Averroes bilan kelisha olmagan va uning asarlariga tanqid yozganlariga qaramay, uning asarlaridan foydalanishgan. Misol uchun, Foma Akvinskiy uning sharhlarini model sifatida ishlatgan va metafizika, etika va tabiat falafasiga oid qarashlarning katta qismini Averroes talqini orqali tushungan. Akvinskiy unga shunday ta’rif beradi: “Darhaqiqat u aristotelchilik an’anasini buzib talqin qilgan, ammo shunga qaramay uning so‘zlariga hurmat va e’tibor bilan muomala qilinishi lozim”.

Averroesning eng ko‘p bahsga sabab bo‘lgan ta’limotlaridan biri bu aqlning yagona va universal ekani, aniqroq qilib aytganda moddiy aqlning birligi nazariyasidir. Unga ko‘ra barcha insonlar aqlga ega bo‘lib, individual emas, balki umumiy aql orqali bilish amalga oshiriladi. Bu moddiy aqlning birligi ta’limoti Renessans davrida arab falsafasining mashhur va shu bilan bir qatorda bahsli g‘oyasi bo‘ldi. Shu tufayli Averroes gumanist olimlari Petrarkadan tortib Vivesgacha tomonidan tanqid qilindi. Lekin shunga qarmay, bu nazariya “Padua Averroistlari” deb nomlanuvchi yosh faylasuflar Nikoletto Vernia, Agostino Nifo va Pietro Pompanazzilar tomonidan qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda Ibn Rushd musulmon faylasuflari ichida o‘chmas iz qoldirdi. Uning g‘oyalari oxir-oqibat ildiz otdi, lekin u kutgandek emas edi. U birinchi auditoriyasini o‘ziga jalb eta olmadi va natijada uning ilmiy merosi va falsafasi musulmon o‘lkalarida zavolga yuz tutdi. Shu sababli, uning qo‘lyozmalari va falsafiy g‘oylari Lotin G‘arbida yangi auditoriya va ilmiy qiziqishga erishdi. Iberia yarimoroli bunda arab-yunon falsafasi va ilm-fanining G‘arbiy Yevropaga o‘tishi uchun ko‘prik vazifasini o‘tadi va oxir-oqibat XV asrdagi Yevropa Renassansi uchun zamin hozirladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Etuk, Anthony Raphael. "Revisiting Averroes' influence on Western philosophy" // *A Journal of Contemporary Research*. 2022. p. 174-195.
2. Fakhry, Majid. *Averroes (Ibn Rushd): His Life, Works and Influence*. Oxford: Oneworld, 2001. p. 132-133
3. Stroumsa, Sarah. *Andalus and Sefarad on Philosophy and its history in islamic Spain*. Princeton University Press. 2019. p. 162-164.
4. Gill, John. *Andalucía: A Cultural History*. Oxford: Oxford University Press, 2009. p. 111-112.
5. Hasse, D, N. The attraction of Averroism in the Renaissans: Vernia, Achillini, Prossicio // *Bulletin of the Institute of Classical Studies*, Volume 47, 2004, Pages 131–147.
6. Taylor, R, C. "Averroes on Psychology and the Principles of Metaphysics". // *Journal of the History of Philosophy*, Vol. 36, No. 4 (October, 1998). p. 507.



